

OROL FOJIASI – TARIXIY SABOQ VA BIOLOGIK MUAMMO**Murodjonova So‘g‘diyona****Farg‘ona davlat universiteti****Tabiiy fanlar fakulteti 25.56-guruh talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17864784>****ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada orol dengizining qurishi, biologik va ekologik oqibatlari yoritib beriladi. Orol fojiasi insoniyat tarixidagi eng yirik falokatlardan biri bo‘lib, suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish natija kelib chiqqan. Maqolada Orol fojiasidan olingan tarixiy saboqlar yoritilib, biologik muammolar va salbiy oqibatlar chuqur taxlil qilinadi.

KALIT SO‘ZLAR

Orol dengizi, orol fojiasi, Amudaryo va Sirdaryo, biologik muammo, tabiiy resurslar, surunkali bronxit, sil, astma, o‘pka saratoni

KIRISH

O‘rta Osiyo xaritasiga nazar tashlagan har qanday kishi Orol dengizi fojiasi nafaqat mintaq, balki butun insoniyatning atrof-muhitga nisbatan eng yirik xatolaridan biri ekanligiga guvoh bo‘ladi. Bir vaqtlar sayyoramizning eng yirik ko‘li bo‘lgan Orol vaqtlar o‘tishi bilan cho‘l va kemalar qabristoniga aylanib qolgan ulkan tuzli maydondir. Yillar davomida Amudaryo va Sirdaryodan paxta ekinlarini sug‘orish uchun haddan ziyon ko‘p suv olinishi oqibatida bu ulkan suv havzasining qurish jarayoni jadallashdi. Bugungi kunda Orolning qurigan yerlarida „Orolqum“ nomini olgan yangi chol-millionlab gektar maydonlarni egallaydi. Qurigan maydonlarda ko‘tarilayotgan zaharli tuz va changlar kuchli shamollar ta‘sirida minglab kilometr maydonlarga tarqalib, nafaqat mintaq aholising salomatligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda, balki iqlim o‘zgarishlariga ham hissa qo‘shmoqda.

ASOSIY QISM

Orol dengizi – O‘rta osiyo hududidagi eng katta berk ko‘l. U ilgari kattaligi jihatdan dunyoda tortinchi o‘rinda (Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko‘l va Afrikadagi Viktoriya ko‘lidan keyin), Yevroosiyo materigida (Kaspiydan keyin) ikkinchi o‘rinda edi. 1960-yillarda maydoni 68 000 km kv ni tashkil etar edi, lekin ushbu suv havzasining asosiy suv ta‘minoti manbalari bo‘lgan Amudaryo va Sirdaryo suvlarining 1960-yildan boshlab paxta ekinlarini sug‘orish uchun ko‘p miqdorda suv sarflanishi natijasida dengizga yetib keluvchi suv hajmi keskin kamayishni boshladi. O‘tgan 40 yildan ko‘p vaqt davomida Orol dengizining maydoni deyarli to‘rt marta qisqardi, suv sathi 1.8 barobarga kamaydi, undagi suv hajmi 9 marta yaqin kamaydi. Dengiz suvining sho‘rlanishining darajasi tubdan o‘zgardi: ilgari 9-10 g/l bo‘lgan sho‘rlanish darajasi hozirda 70-80 g/l gacha ortdi. Bu baliqchilik va dengizda yashovchi o‘simlik va hayvonot olamining aksariyat qismining butunlay yo‘q bo‘lishiga olib keldi. 2007-yilga kelib, Orol dengizi maydoni 50 yil avvalgiga nisbatan 90 foizga yaqin yo‘qotilgan edi. 2010-yil malumotlariga ko‘ra Orol dengizi maydoni atigi 13 900 km kv ni tashkil etdi. Uning qolgan qismi bir-biridan ajralgan ko‘llar tizimiga aylanib qoldi. Suv sathi pasayishi natijasida uning qurigan yerlarida „Orolqum“ deb nomlangan yangi sho‘rlangan chol hosil bo‘ldi.

Orol dengizi qisqarishi va sho‘rlashish darajasining keskin ortishi biologik xilma-xilliklarga jiddiy zarar yetkazdi. Masalan: 1960-yillarda ko‘lda 30 dan ortiq baliq turi bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning aksariyati butunlay yo‘qolgan. Shuningdek, Orol dengizi atrofidagi o‘simliklar olami kamayib ketdi. Suv rejimining buzilishi va tuproqning sho‘rlanishi

natijasida mintaqaning qirg'oq bo'yi landshaflari (to'qaylar) deyarli butunlay yo'qoldi. Bu esa ko'plab qushlar va sut emizuvchilarning yashash muhitini barbod qildi. Shamol yordamida qum va changlar bilan birga zararli tuzlar va kimyoviy moddalar inson salomatligiga va atrof-muhitga jiddiy zarar ko'rsatmoqda. Sho'r chang tasirida tuproqdagi tuz miqdorining ortishi ekinlarning normal o'sishiga to'sqinlik qiladi, natijada hududlarda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi sezilarli darajada pasayib, ayrim hududlarda dehqonchilik qilishning iloji qolmadi. Shu bilan birga tarqalgan tuz va kimyoviy moddalar inson salomatligiga ham jiddiy zarar yetkazmoqda. Orol bo'yi va unga yaqin hududlardagi insonlarda surunkali bronxit, sil, astma kabi nafas yo'li kasalliklari, allergiya va onkologik kasalliklar ko'paydi, natijada inson salomatligida jiddiy o'zgarishlar vujudga keldi.

XULOSA

Orol dengizi qurishi insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik falokatlardan biri sifatida nafaqat O'rta Osiyoda balki butun dunyo uchun muhim tarixiy saboqdir. Bu ekologik inqiroz tabiiy muhitning buzilishi, atrof-muhitga zarar yetkazilishining og'ir oqibatlarini ko'rsatdi. Orol fojiasi tabiiy resurslardan ehtiyotkorlik bilan boshqarish zaruriyatini yana bir bor eslatib turadigan tarixiy darsdir. Shu bilan birga bu fojia O'rta osiya davlatlarini birlashishga va tabiiy resurslardan foydalanishda hamkorlikni kuchaytirishga undadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Orol_dengizi
2. "Orol dengizi qurishining atrof-muhitga ta'siri" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar to'plami.
3. G'ulomov, P. G'. (2018). Orol fojiasi: Tarix va zamon. Toshkent: Yangi Asr Avlodi.
4. Ahmedov, A. M. (2019). Markaziy Osiyo ekologik muammolari. Samarqand: Samarqand nashriyoti.
5. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). Orolbo'yi – barqaror rivojlanish yo'lida. (Nutqlar to'plami). Toshkent: O'zbekiston.